

INKLUZIV TA'LIMDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING
AHAMIYATI

Mamaraximova Zamira Atadjonovna

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun, ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum maxsus fan o'qituvchisi.

Annotatsiya: Inklyuziv ta'lim - bu alohida ehtiyojli bolalarning barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim olishini ta'minlaydigan umumiyligini jarayonini rivojlantirish. Inklyuziv ta'lim bolalarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini qondiradi va o'rganish va o'qitishning yangi yo'nalishini ishlab chiqishga intiladi. Inklyuziv ta'lim va o'qitishda kiritilgan o'zgarishlar samarali bo'lsa, alohida ehtiyojli bolalar uchun vaziyat o'zgaradi. Maqolada inkluziv ta'linda individual yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: inkluziv ta'lim, ijtimoiylashuv, qo'llab-quvvatlash, metodik yondashuvlar, o'qituvchilar, individual yondashuv, maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilar, ta'lim, ko'nikmalar.

Аннотация: Инклюзивное образование — это развитие общеобразовательного процесса, обеспечивающего получение детьми с особыми потребностями образования с учетом потребностей всех детей. Инклюзивное образование учитывает потребности детей в процессе обучения и стремится развить новое направление в обучении и преподавании. Если изменения, вносимые в инклюзивное образование и обучение, будут эффективными, ситуация изменится и для детей с особыми потребностями. В статье освещаются особенности и значение индивидуального подхода в инклюзивном образовании.

Ключевые слова: инклюзивное образование, социализация, сопровождение, методические подходы, педагоги, индивидуальный подход, учащиеся с особыми потребностями, образование, навыки.



Abstract: Inclusive education is the development of a general educational process that ensures that children with special needs receive education, taking into account the needs of all children. Inclusive education meets the needs of children in the educational process and seeks to develop a new direction in learning and teaching. If the changes introduced in inclusive education and teaching are effective, the situation for children with special needs will change. The article highlights the specific features and importance of an individual approach in inclusive education.

Keywords: inclusive education, socialization, support, methodological approaches, teachers, individual approach, students with special needs, education, skills.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim – ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlarida alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlataladi. Inklyuziv ta'lim - bu normal rivojlangan bolalar bilan ijtimoiylashuv va integratsiya jarayonlarini soddalashtirish maqsadida nogiron bolalar uchun soddalashtirilgan ta'lim tizimi. Inklyuziv ta'lim integratsiyalashgan (o'quvchi oddiy bolalar guruhida o'qiydi va defektolog o'qituvchidan tizimli yordam oladi), qisman (alohida bolalar kunning yarmini maxsus guruhlarda o'tkazadilar, ikkinchi qismi esa) va oddiy guruhlarda amalga oshiriladi. Vaqtinchalik maxsus guruhlardagi bolalar birgalikda yurishlar, bayramlar, musobaqalar va shaxsiy ishlarni o'tkazish uchun birlashtiriladi.

Inklyuziv ta'lim - barcha bolalarga maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari hayotida faol ishtirok etish imkonini beradi. Inklyuziv ta'lim -bolalar uchun teng huquqlarni belgilaydi va ularga guruhi faoliyatida qatnashish imkonini beradi. Odamlar bilan muloqot qilish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Inklyuziv ta'lim - bu alohida ehtiyojli bolalarning barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim olishini ta'minlaydigan umumiyligi ta'lim jarayonini rivojlantirish. Inklyuziv ta'lim bolalarning o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini qondiradi va o'rganish va o'qitishning yangi yo'nalishini ishlab chiqishga intiladi. Inklyuziv ta'lim

va o'qitishda kiritilgan o'zgarishlar samarali bo'lsa, alohida ehtiyojli bolalar uchun vaziyat o'zgaradi.

MUHOKAMA

Maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda individual yondashuvning ahamiyati katta. Ularning turli xil ehtiyoji qarab o'quv jarayonini moslashtirish, ularning har biri uchun o'zgacha ta'lismetodollarini qo'llash ta'lismifatini yaxshilashga yordam beradi. Har bir o'quvchining potentsialini maksimal darajada rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning alohida xususiyatlarini va o'quv faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olishi zarur.

Individual yondashuv: konsepsiya va ahamiyati.

Individual yondashuv, o'quvchining intellektual va emotsiyalardan foydalanishni anglatadi. Bu yondashuvda o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlar, salohiyatlari va qiziqishlari hisobga olinadi. Inkluziv ta'linda o'quvchilarning maxsus ehtiyojlariga qarab, darslarni tashkil etishda, turli qo'llab-quvvatlovchi vositalar va materiallar, shuningdek, o'quv texnologiyalarini qo'llash muhim hisoblanadi.

O'quvchilarni individual yondashuv asosida qo'llab-quvvatlashda bir qator metodik va psixologik yondoshuvlar mavjud. Ular orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtirish, ular uchun mos ta'lismuhitini yaratish va o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, individual yondashuv orqali o'qituvchi o'quvchining ehtiyojlariga moslashgan individual o'quv rejali va strategiyalarni ishlab chiqadi.

Maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilarni ta'linda qo'llab-quvvatlash, ularning akademik muvaffaqiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy va emotsiyalardan rivojlantirishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda o'qituvchining yondashuvi o'zgacha bo'lishi kerak. Misol uchun, disleksiya, autism yoki boshqa maxsus ehtiyojiga ega o'quvchilarga o'quv jarayoni yaxshilanishi uchun

maxsus texnikalar va moslashtirilgan materiallardan foydalanish zarur. O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashda quyidagi yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin:

Vizual va Auditiv yordam: Ekran va audiovizual materiallar yordamida o‘quvchilarga darsni o‘rganishda yordam berish.

Ko‘rgazmali usullar: Grafiklar, diagrammalar, tasvirlar orqali o‘quvchilarga tushuntirish va darsni engillashtirish.

Jismoniy yordam: O‘quvchilarga jismoniy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va mashg‘ulotlar.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash: O‘quvchilar bilan shaxsiy aloqalarni rivojlantirish, ular bilan to‘g‘ri va ijobjiy muloqot o‘rnatish.

Inkluziv ta’limda individual yondashuvni amalga oshirish, o‘quvchilar har birining ehtiyojlariga mos ravishda darsni o‘zgartirish, bilim olish jarayonini yanada samarali va osonroq qilishga yordam beradi. Maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli xil metod va strategiyalar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilim olishda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

Inkluziv ta’limning asosiy maqsadi har bir o‘quvchining potensialini to‘liq ochib, ularga teng imkoniyatlarni taqdim etishdir. Inkluziv ta’limda individual yondashuvning roli katta ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining maxsus ehtiyojini hisobga olish, ularning ta’lim olish jarayonini osonlashtiradi va samarali natijaga olib keladi. Maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Inkluziv ta’lim, barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish orqali, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ingliz va boshqa tillarda ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi o‘quvchilarga ta’lim berishning turli metodik yondoshuvlarini qo‘llash imkoniyatini beradi. Inkluziv ta’limdagи individual yondashuvlar nafaqat maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarga, balki barcha o‘quvchilar uchun ham ta’limni yaxshilashda, ularning o‘zlashtirish darajasini oshirishda samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, inkluziv ta’limda nafaqat akademik yutuqlar, balki

shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ingliz va boshqa tillarda ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi o‘quvchilarga ta’lim berishning turli metodik yondoshuvlarini qo‘llash imkoniyatini beradi. Inkluziv ta’limdagи individual yondashuvlar nafaqat maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarga, balki barcha o‘quvchilar uchun ham ta’limni yaxshilashda, ularning o‘zlashtirish darajasini oshirishda samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, inkluziv ta’limda nafaqat akademik yutuqlar, balki

o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, o‘zini ifoda etish va jamiyatga moslashish kabi omillar ham katta o‘rin egallaydi.

XULOSA

O‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda ishlashga tayyorlash, maxsus metodik ko‘nikmalarni rivojlantirish, hamda turli qo‘llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish ta’lim tizimini yaxshilashga xizmat qiladi. O‘qituvchilar va boshqa mutaxassislarning kasbiy malakalarini oshirish, inkluziv ta’limda samarali ishlashda zaruriyatdir. Shuningdek, ta’lim tizimida maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun moslashuvchan va samarali ta’lim muhitini yaratish, jamiyatda inkluziv yondoshuvlarni kengaytirish zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Гафурова, Н. (2015). Инклюзивное образование: Теория и практика. Ташкент: Академия.
- Махмудова, С. (2018). Психологическая поддержка детей с особыми образовательными потребностями. Ташкент: Узбекистан.
- Поташник М.М. Управление качеством образования. - М.: Педагогическое общество России, 2000. – 448 с.
- Алтаева Г. Ж. Роль психолого-педагогического сопровождения детей в условиях инклюзивного образования. (КРО) школа-интернат общего типа, г. Щучинск – 2015 год.
- Акишева А.К., кандидат педагогических наук, старший преподаватель кафедры социально-педагогических дисциплин, Кокшетауский университет им.Абая Мырзахметова (Республика Казахстан, г. Кокшетау)